



KONSTITUTSIYA – ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI

Tohirova Malikabonu Umidovna

E-mail: tohirovamalikabonu8@gmail.com

Buxoro davlat universiteti “Tarix va yuridik” fakulteti

5-2 YURS 25 guruh 1-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining davlat va jamiyat hayotidagi o‘rni, inson huquqlarini himoya qilishdagi asosiy kafolatlari, siyosiy tizimning barqaror rivojlanishiga ta’siri hamda farovon jamiyat barpo etishdagi ilmiy-huquqiy ahamiyati tahlil qilinadi. Konstitutsiya erkinlik, adolat, qonun ustuvorligi va ijtimoiy barqarorlik tamoyillarini o‘zida mujassam etgan huquqiy manba sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot konstitutsion huquq nazariyasi va amaliyotni qiyosiy tahlil qilish usullari asosida olib borildi.*

Kalit so‘zlar: *Konstitutsiya, huquq va erkinliklar, demokratiya, qonun ustuvorligi, fuqarolik jamiyati, farovonlik, davlat hokimiyati, inson huquqlari.*

KIRISH

Konstitutsiya (lotincha “Constitution” – tuzilish, tuzuk) – davlatning Asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va shaxsning o‘zaro munosabatlari, shuningdek, sud tizimini hamda davlat va jamiyatning o‘zaro munosabatlarini belgilab beradi. “Konstitutsiya” atamasi Qadimgi Rimdayoq ma’lum bo‘lgan (imperator Konstitutsiyasi deb atalgan qonun). Amir Temur “Tuzuklar”i Sharq va Osiyo mamlakatlari sivilizatsiyasiga xos alohida shakldagi konstitutsiyaviy hujjat xususiyatiga ega bo‘lgan. U shariat qonunlari bilan bir qatorda Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari taqdiriga kuchli ta’sir o‘tkazgan. Asosiy Qonunimiz yaratilishining murakkab va muhim, ayni chog‘da sharaflı solnomasiga nazar solar ekanmiz, hech shubhasiz, O‘zbekiston Konstitutsiyasi xalqimizning mustaqillik sari uzoq yo‘ldagi izlanishlari natijasi



ekaniga komil ishonch hosil qilamiz. Konstitutsiya har qanday demokratik davlatning siyosiy-huquqiy asosini belgilovchi eng oliy normativ hujjat sifatida jamiyatning rivojlanish yo'nalishini aniq belgilab beradi. Uning asosiy mohiyati davlat hokimiyatining tashkil etilishi, uning cheklanishi va tarmoqlarga bo'linishi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat hayotidagi asosiy ijtimoiy-siyosiy tamoyillarning aniq ifodalanishida namoyon bo'ladi. Konstitutsiyaning mavjudligi davlatning qonuniyligini va siyosiy tizimning legitimligini ta'minlabgina qolmay, balki jamiyatning huquqiy ongini shakllantiradi, fuqarolarning davlatga nisbatan ishonchini mustahkamlaydi. U jamiyatning huquqiy poydevorini yaratibgina qolmay, davlat boshqaruvi tizimi, hokimiyat tarmoqlari o'rtasidagi vakolatlar taqsimoti, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari, siyosiy institutlar faoliyatining prinsiplari va jamiyatning ma'naviy-siyosiy qadriyatlarini aniq belgilab beradi. Shu bois Konstitutsiya nafaqat huquqiy tizimning shakliy yadrosi, balki jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligi, davlatning legitimligi va fuqarolarning erkin rivojlanishi uchun umumiy konseptual qoidalar majmui sifatida qaraladi. Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari chuqurlashib borgani sari konstitutsiyaning davlat hayotidagi roli yanada kengayib bormoqda. Inson huquqlarining universallasuvi, xalqaro institutlarning kuchayishi, iqtisodiy integratsiya jarayonlarining chuqurlashuvi, raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt texnologiyalarining hayotga kirib kelishi davlatlarning huquqiy tartibotini yangilashni zaruratga aylantirmoqda. Bu jarayonlarda konstitutsiya davlatning o'zgarishlarga moslashuvchanligini, demokratik institutlarning barqaror ishlashini, fuqarolarning yangi sharoitda huquqiy himoya darajasini ta'minlaydigan asosiy mexanizmga aylanadi. Shu sababli konstitutsiya nafaqat siyosatshunoslar va huquqshunoslarning, balki iqtisodchilar, sotsiologlar, davlat boshqaruvi bo'yicha mutaxassislarning ham doimiy ilmiy e'tiborida turadi.

ASOSIY QISM

Konstitutsiya har qanday davlatning siyosiy-huquqiy tizimining asosi hisoblanadi. U nafaqat davlat tuzilishini belgilaydi, balki jamiyat hayotining barcha



muhim yoʻnalishlarini tartibga soluvchi fundamental huquqiy mezonlarni oʻzida mujassamlashtiradi. Eng avvalo, Konstitutsiya insonni, uning hayoti, erkinligi, shaʼni va qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida eʼtirof etadi. Mazkur prinsip demokratik davlatning asosiy belgisi boʻlib, erkin va farovon hayotning mustahkam poydevorini yaratadi. Konstitutsiya fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini kafolatlaydi. Shaxsiy huquqlarga yashash huquqi, shaʼni va qadr-qimmatining daxlsizligi, vijdon erkinligi hamda shaxsiy hayot sirining himoyasi kiradi. Ushbu huquqlar insonning erkin va daxlsiz hayot kechirishi uchun zarur huquqiy asos boʻlib xizmat qiladi. Siyosiy huquqlar esa fuqarolarning davlat boshqaruvida bevosita yoki bilvosita ishtirok etishini taʼminlaydi. Saylash va saylanish huquqi, miting va yigʻilishlar oʻtkazish huquqi, soʻz va fikr erkinligi demokratik jamiyatning ajralmas belgilaridir. Fuqarolarning siyosiy faolligi jamiyatda ochiqlik, oshkoralik va masʼuliyatni kuchaytiradi. Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar farovon hayotning moddiy asosini yaratadi. Mehnat qilish huquqi, kasb tanlash erkinligi, tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanish imkoniyati, mulk huquqining daxlsizligi, taʼlim olish va tibbiy yordamdan foydalanish huquqlari fuqarolarning turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi. Aynan ushbu konstitutsiyaviy normalar jamiyatda ijtimoiy adolatni taʼminlashga qaratilgan boʻlib, aholining munosib hayot kechirishi uchun shart-sharoit yaratadi. Erkin va farovon jamiyatni barpo etishda qonun ustuvorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Konstitutsiya oliy yuridik kuchga ega boʻlib, barcha qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar unga mos boʻlishi shart. Bu esa davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyatini qatʼiy huquqiy mezonlar asosida olib borilishini taʼminlaydi. Qonun ustuvorligi prinsipi jamiyatda tartib-intizom va barqarorlikni mustahkamlaydi. Adolat tamoyili sud hokimiyatining mustaqilligi orqali roʻyobga chiqadi. Har bir fuqaro oʻz buzilgan huquqlarini sud orqali himoya qilish imkoniyatiga ega. Sudlarning mustaqilligi va xolisligi fuqarolarning huquqiy ishonchini oshiradi. Jamiyatda adolat qaror topgan taqdirda, fuqarolarda kelajakka nisbatan ishonch va ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanadi. Konstitutsiyada hokimiyatlar boʻlinishi



prinsipi ham mustahkamlangan bo'lib, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati o'z vakolatlari doirasida faoliyat yuritadi. Ushbu tizim o'zaro tiyib turish va muvozanat mexanizmini yaratadi hamda hokimiyatning bir qo'lda jamlanib qolishining oldini oladi. Hokimiyat tarmoqlari o'rtasidagi muvozanat boshqaruv samaradorligini oshiradi, korrupsiya xavfini kamaytiradi va fuqarolarning huquqlarini yanada ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi. Konstitutsiyada ijtimoiy davlat prinsipi mustahkamlangan bo'lib, davlatning asosiy vazifalaridan biri aholining munosib turmush darajasini ta'minlashdan iboratdir. Ijtimoiy himoya tizimi, kam ta'minlangan qatlamlarni qo'llab-quvvatlash, nogironligi bo'lgan shaxslar va keksalarga g'amxo'rlik qilish farovon jamiyatning muhim belgilaridir. Ta'lim va sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishi jamiyatning intellektual va jismoniy salohiyatini oshiradi, bu esa uzoq muddatli taraqqiyot va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Erkin jamiyat fuqarolarning faol ishtirokisiz shakllanmaydi. Konstitutsiya fuqarolik jamiyati institutlarining erkin faoliyat yuritishiga huquqiy asos yaratadi. Nodavlat notijorat tashkilotlari, mustaqil ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik birlashmalari jamiyat hayotida muhim o'rin tutadi hamda davlat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi. Shu bilan birga, huquqiy madaniyatning yuksalishi Konstitutsiya normalarining amalda samarali ishlashini ta'minlaydi. Fuqarolar o'z huquq va majburiyatlarini anglab, qonunlarga hurmat bilan munosabatda bo'lsa, jamiyatda qonuniylik va tartib mustahkamlanadi. Natijada Konstitutsiya nafaqat huquqiy hujjat, balki erkin va farovon hayotning haqiqiy kafolatiga aylanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot konstitutsiyaning nazariy-huquqiy asoslari, uning davlat boshqaruvi va jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini, zamonaviy global jarayonlar ta'siri ostida rivojlanish dinamikasini chuqur o'rganishga yo'naltirilgan. Buning uchun bir nechta ilmiy metodlar majmuasi qo'llandi. Avvalo, komparativ-huquqiy tahlil metodi asosida turli mamlakatlarning konstitutsion modellarini solishtirish, ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash, demokratik tamoyillarning qaysi shaklda



samarali ishlashini aniqlashga e'tibor qaratildi. Tarixiy-huquqiy yondashuv yordamida konstitutsiyaning tarixiy ildizlari, uning evolyutsion rivojlanish bosqichlari, siyosiy tizimlar almashuvi davrida tutgan o'rni va huquqiy tafakkur o'zgarishlari o'rganildi. Shu bilan birga, normativ-huquqiy tahlil orqali konstitutsiyaning ichki tuzilishi, undagi me'yorlarning mazmuni, tamoyillarning izchilligi, ularni mustahkamlovchi huquqiy mexanizmlar tahlil qilindi. Tizimli yondashuv metodi konstitutsiyani davlatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy tizimlari bilan o'zaro bog'liq yaxlit mexanizm sifatida ko'rib chiqishga imkon berdi. Tadqiqotda xalqaro tashkilotlarning – BMT, YeI, YeXHT, Venesiya komissiyasining konstitutsiyaviy nazorat, inson huquqlari, demokratik institutlar faoliyati bo'yicha tavsiyalari ham tahlil qilindi. Mazkur metodlar uyg'unligi konstitutsiyaning zamonaviy davlatdagi rolini nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda o'rganish imkonini berdi. Tadqiqotning muhim metodlaridan yana biri — interdisziplinarniy yondashuv bo'lib, u konstitutsiyani faqat huquqiy hujjat sifatida emas, balki siyosiy, iqtisodiy, sotsiologik va madaniy jarayonlar bilan uzviy bog'liq murakkab tizim sifatida o'rganish imkonini berdi. Ushbu metod orqali konstitutsiyaning demokratik jarayonlarga ta'siri, iqtisodiy islohotlarni qo'llab-quvvatlovchi normativ asos sifatidagi roli hamda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishdagi ahamiyati keng qamrovli tahlil qilindi. Bu yondashuv ayniqsa zamonaviy global o'zgarishlar davrida konstitutsiyaning o'zgaruvchan sharoitga moslashuvchanligini aniqlashda muhim omil bo'lib xizmat qildi. Bundan tashqari, tadqiqotda empirik-huquqiy tahlil metodi qo'llanilib, konstitutsiyaning amaliy qo'llanishini ko'rsatib beruvchi faktlar, statistik ma'lumotlar, hukumat qarorlari, konstitutsiyaviy sud amaliyoti va xalqaro tashkilotlar reytinglari o'rganildi. Bu metod konstitutsiya me'yorlarining real hayotda qay darajada ishlashini, ularning samaradorligi va fuqarolar hayotiga ta'sir darajasini aniqlash imkonini berdi. Ayniqsa, inson huquqlari bo'yicha xalqaro indekslar, boshqaruv samaradorligi ko'rsatkichlari va shaffoflik reytinglarining



tahlili konstitutsiyaviy islohotlarning amaliy natijalarini ilmiy jihatdan baholashga yordam berdi.

NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson huquqlarini jamiyat hayotining asosiy mezon sifatida belgilaydi. Uning 13-moddasida "Inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat" ekani mustahkamlangan. Mazkur norma davlat siyosatining markazida inson manfaatlarini turishini anglatadi. Shaxsiy daxlsizlik, harakatlanish erkinligi, mulk huquqi, e'tiqod erkinligi, tenglik, ta'lim va tibbiy xizmat olish huquqi kabi qoidalar fuqarolar uchun muhim konstitutsiyaviy kafolatlardir. Shuningdek, Konstitutsiyada jamiyatning ma'naviy-axloqiy asoslarini mustahkamlovchi normalar — oila institutini himoya qilish, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, mehnat munosabatlarini tartibga solish kabi tamoyillar ham o'z aksini topgan. Bu esa erkin va farovon hayotning nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy-ma'naviy poydevorini ham yaratadi. Konstitutsiyada Monteskye ta'limotiga asoslangan hokimiyatlar bo'linishi prinsipi joriy etilgan. Qonun chiqaruvchi hokimiyat — Oliy Majlis, ijro etuvchi hokimiyat — Prezident va Hukumat, sud hokimiyati esa mustaqil ravishda faoliyat yuritadi. Bunday tizim davlat hokimiyatining bir qo'lda to'planishini cheklaydi, boshqaruvda mas'uliyat va muvozanatni ta'minlaydi. So'nggi yillarda parlament nazorat funksiyasining kuchaytirilishi, sud mustaqilligining oshirilishi hamda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari vakolatlarining kengaytirilishi demokratik tamoyillarning amaliy ifodasidir. Konstitutsiyada "ijtimoiy davlat" tushunchasi aniq belgilangan bo'lib, davlat aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlashni o'z zimmasiga oladi. Kam ta'minlangan qatlamlarni qo'llab-quvvatlash, bolalar va ayollarga alohida g'amxo'rlik ko'rsatish, keksalar hamda nogironligi bo'lgan shaxslarni himoya qilish kabi majburiyatlar farovon jamiyat qurishning huquqiy asosini tashkil etadi. Ayniqsa, 2023-yilda Konstitutsiyaning yangi tahriri qabul qilingach, pensiya ta'minoti, uy-joy huquqi, ekologik xavfsizlik, ta'lim va ijtimoiy kafolatlar yanada mustahkamlandi. Bu o'zgarishlar davlatning ijtimoiy yo'naltirilgan siyosatini yanada



kuchaytirdi. Konstitutsiyaning iqtisodiy rivojlanishdagi roli ham muhim ahamiyatga ega. Uning 65–66-moddalarida mulk huquqi, mulk shakllarining tengligi va erkin tadbirkorlik kafolatlari belgilangan. Mazkur normalar bozor iqtisodiyoti tamoyillarini mustahkamlaydi hamda iqtisodiy erkinlikning huquqiy asosini yaratadi. Investorlar huquqlarining himoyasi, tadbirkorlik subyektlariga yaratilgan qulay sharoitlar va bozor mexanizmlarining rivojlanishi Konstitutsiyada belgilangan prinsiplarga tayanadi. Bu esa iqtisodiy barqarorlik va farovonlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, Konstitutsiya ochiq jamiyat va fuqarolik faolligini rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Siyosiy partiyalar faoliyati, jamoatchilik nazorati, ommaviy axborot vositalarining erkinligi hamda xalq bilan muloqot mexanizmlarining kuchayishi jamiyat ochiqqligini ta'minlamoqda. “Ochiq byudjet”, “Ochiq parlament”, “Xalq qabulxonalari”, “Raqamli hukumat” kabi tashabbuslar Konstitutsiyada belgilangan huquqiy tamoyillarning amaliy ifodasidir. Bu jarayonlar fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytiradi va jamiyatda shaffoflikni kuchaytiradi. Yuqoridagi tahlillar natijasida shuni xulosa qilish mumkinki, Konstitutsiya erkin va farovon hayotni ta'minlashning fundamental huquqiy asosi hisoblanadi. Unda belgilangan inson huquqlari, qonun ustuvorligi, hokimiyatlar bo'linishi va ijtimoiy davlat tamoyillari jamiyat barqarorligi hamda taraqqiyotining muhim kafolatidir. Konstitutsiyaviy normalarning izchil va samarali amalga oshirilishi fuqarolarning huquqiy ishonchini mustahkamlaydi, demokratik boshqaruvni rivojlantiradi va davlat hamda jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

MUHOKAMA

Muhokama jarayonlari olingan natijalarni chuqurroq talqin qilish imkonini berdi. Avvalo, konstitutsiyaning siyosiy tizim barqarorligidagi roli global kontekstda doimiy o'sib borayotgan jarayon ekanini ko'rsatdi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni tasdiqlaydiki, konstitutsiya yillar davomida o'zgarmas statik hujjat emas, balki jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda dinamik rivojlanib borishi lozim bo'lgan ijtimoiy-huquqiy tizimdir. Yana bir muhim masala konstitutsiyaning amalda bajarilishi. Har



qanday davlatda konstitutsiyaning muvaffaqiyati nafaqat undagi me'yorlarning mukammalligiga, balki ularning real hayotda qay darajada ishlashiga bog'liq. Shu nuqtai nazardan, huquqiy madaniyatning rivoji, davlat organlarining konstitutsiyaviy tamoyillarga sodiqligi va fuqarolarning o'z huquqlaridan xabardorligi konstitutsiyaning haqiqiy samaradorligini belgilaydi. Zamonaviy davrning yangi chaqiriqlari sun'iy intellektning huquqiy tartibga solinishi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, ekologik barqarorlik, global isish, migratsiya jarayonlari konstitutsiyaning ham nazariy, ham amaliy jihatdan doimiy takomillashtirilishini talab qilmoqda. Bu jarayonlarda milliy va xalqaro huquqning o'zaro yaqinlashuvi alohida ahamiyatga ega. Davlatlarning aksariyati global standartlarni konstitutsiyaviy me'yorlar orqali milliy huquqat tizimiga integratsiya etmoqda.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, konstitutsiya davlatning siyosiy-huquqiy barqarorligini ta'minlovchi, jamiyatning demokratik rivojlanishini boshqaruvchi, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini kafolatlovchi eng muhim huquqiy hujjatdir. Uning samaradorligi konstitutsiyaviy tamoyillar izchil amalga oshirilishi, davlat organlari o'rtasidagi muvozanatning mustahkamligi, fuqarolik jamiyatining faoliyati, sud hokimiyatining mustaqilligi va huquqiy madaniyatning yuksakligiga bog'liq. Zamonaviy davr konstitutsiyalardan yangi talablarni kutmoqda innovatsion texnologiyalarni huquqiy tartibga solish, kiberxavfsizlik, ekologik muammolar, raqamli huquqlar, global xavfsizlik tamoyillarini normativ jihatdan mustahkamlash. Milliy konstitutsiyamizning takomillashuvi davlatning siyosiy tizimini mustahkamlash, iqtisodiy barqarorlikni oshirish, xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini kuchaytirish va eng muhimi fuqarolarning farovonligini ta'minlashning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Shu ma'noda, konstitutsiya nafaqat huquqiy hujjat, balki jamiyatning kelajak tasavvurini belgilovchi strategik yo'nalishdir.

Konstitutsiya bugungi islohotlar sharoitida o'zining hayotiyligini namoyon etib, davlat va jamiyatning harakatlantiruvchi kuchiga aylangan. U O'zbekistonning



ertangi kuni uchun ishonchli, qat'iy huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu ma'noda, Konstitutsiya – erkin, obod va farovon hayotning eng muhim kafolatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023). – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi materiallari. (2022). Konstitutsiyaviy islohotlar bo'yicha axborot byulleteni. Toshkent.
- 3.Bobojonov, R. (2021). Konstitutsiyaviy huquq asoslari. Toshkent: TDYU nashriyoti.
4. https://constitution.uz/oz/pages/Konstitusiyamizning_yaratilishi
- 5.Karimov, F. (2022). “Konstitutsiyaviy islohotlarning huquqiy mexanizmlari”. Yuridik fanlar axborotnomasi, 3(2), 45–58.
- 6.Saidov, A. (2021). Inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlar va milliy qonunchilik. Toshkent: Yuridik adabiyotlar markazi.
7. Boboyev X., Jo'rayev Q. Davlat va huquq nazariyasi. – TDYU, 2020.
8. Rawls, J. (1999). A Theory of Justice. Harvard University Press.
- 9.Ackerman, B. (2019). Revolutionary Constitutions: Charismatic Leadership and the Rule of Law. Belknap Press.